

Migratsiyaning shakllanishi: turlari, shakllari va oqibatlari (zamonaviy tendensiyalar tahlili)

*Toshkent davlat yuridik universiteti
magistratura 1-bosqich talabasi
Eshmatova Sevinch Sherzod qizi*

Anotatsiya: Maqolada migratsiya tushunchasi, uning tarixiy ildizlari, shakl va turlari, asosiy sabablari hamda xalqaro va ichki migratsiyaning ijobiy va salbiy oqibatlari atroflicha tahlil etilgan. Migratsiya hodisasiga tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar nuqtayi nazaridan yondashilgan holda, uning zamonaviy tendensiyalari va bugungi kunda yuzaga kelayotgan dolzarb muammolari yoritib berilgan. Ichki migratsiya hamda xalqaro migratsiyaning tasniflari keltirilib, migratsiyaning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy sabablari asosli misollar bilan ochib beriladi.

Kalit soʻzlar: Migratsiya, ichki migratsiya, xalqaro migratsiya, mehnat migratsiyasi, majburiy migratsiya, ixtiyoriy migratsiya, iqtisodiy omillar, siyosiy omillar, ekologik omillar, demografik muvozanat, migratsiya oqibatlari, inson huquqlari.

Insoniyat paydo boʻlibdiki, turli sabablarga bir joydan ikkinchi joyga koʻchish odatiy holga aylanib ulgurgan. Tarixdan maʼlumki, xalqlar oʻrtasidagi urushlar, iqtisodiy, siyosiy, geografik omillar natijasida yoki ilm olish va savdo-sotiqni amalga oshirish maqsadida insonlar u joydan bu joyga koʻchishi va oʻsha yerda domiy yashab qolishi mumkin boʻlgan. Ushbu jarayon bugungi kunga kelib ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmadi. Chunki, bilamizki, jamiyat oʻz turfa xilligi va bir-biri bilan oʻzaro bogʻliqligi bilan qiziq.

“**Migratsiya**” atamasi lotincha “migration” soʻzidan olingan boʻlib, aholining mamlakat doirasida bir joydan ikkinchi joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga koʻchishi yoki koʻchirish maʼnolarini bildiradi¹. Aslida mazkur atama ilk marotaba 1332-yilda fransuz huquqshunosi Jan Vinye tomonidan lotin tilidan tarjima qilingan “Tarixiy oyna” nomli asarida ishlatilgan boʻlib, aholining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga koʻchishi, deb taʼriflangan².

Dastlab, migratsiya turlari hamda shakllariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, uni xalqaro va ichki migratsiyaga ajratishimiz mumkin. Xalqaro migratsiyada shaxslar bir davlatdan ikkinchi davlatga qarab harakatlansa, ichki migratsiya turida esa bir davlat hududida bir joydan ikkinchi joyga koʻchish tushunilishi mumkin. Ichki migratsiya, odatda, quyidagi turlarga ajratiladi:

- a) Chekka hududdan markazga qarab harakatlanish (**rural to urban migration**; R-U) – aholining qishloq va rivojlanmagan joylardan yaqin shahar yoki shaharchalarga yaxshi va qulay hayot tarzi, shuningdek, sifatli taʼlim, yuqori daromad kabi maqsadlar asosida koʻchishidir.
- b) Chekka hududlardan boshqa bir chekka hududlarga qarab harakatlanishi (**rural to rural migration**; R-R) – Koʻpincha qishloq xoʻjaligi ishchilari, nikoh tufayli, baʼzan esa dehqonchilik yoki chorvachilik uchun keng yer topish maqsadida koʻchishlar mumkin.
- c) Rivojlangan hududdan boshqa bir shaharlashgan hududga koʻchish (**urban to urban migration**; U-U) – kattaroq kompensatsiya va biznes salohiyati uchun boshqa bozorni izlash maqsadida bir rivojlangan hududdan ikkinchisiga koʻchish tushunilishi mumkin.

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-jild (E-M). – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.588-589.

² Jean de Vignay. Le Miroir historical (Speculum historiale), volume I, tome I (livres I-IV), ed. Mattia Cavagna. – Paris: Societe des anciens textes francais, Abbeville, F. Paillart, 2017. – 814 pages.

d) Shahar markazidan chekka hududlarga ko‘chish (**urban to rural migration**; U-R) – havoning ifloslanishi, odamlarning haddan tashqari ko‘pligi, haddan tashqari ko‘p shovqindan charchash oqibatida yoki ishdan nafaqaga chiqqan insonlarning o‘z vataniga qaytishni xohlashi natijasida ushbu ko‘chish turi ham kuzatilishi mumkin³.

Shuningdek, xalqaro migratsiyaning turlari ham, asosan, ikki turga bo‘linadi:

1) Majburiy Migratsiya (Forced Migration):

Majburiy migratsiyada odamlar o‘z ixtiyori bilan emas, balki tabiat hodisalari, urushlar, zo‘ravonlik, siyosiy ta‘qiblar yoki iqtisodiy og‘ir sharoitlar tufayli ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ladilar. Ushbu majburiy ko‘chgan yoki ko‘chirtirilgan xalqaro migrantlar quyidagi shaklda tavsiflanadi:

- a) *Qonuniy migrantlar (legal immigrants)* – tegishli qonunchilik asosida ko‘chgan shaxslar;
- b) *Noqonuniy migrantlar (unlawful immigrants)* – qonunchilik shartlariga amal qilmasdan, noqonuniy ko‘chgan individlar;
- c) *Qochqinlar (Refugees)* – urushlar yoki siyosiy ta‘qiblardan qochib, boshqa mamlakat hududidan boshpana izlayotgan shaxslar.

2) Ixtiyoriy Migratsiya (Voluntary Migration):

Ixtiyoriy migratsiya, odamlar o‘z hayotini yaxshilash, iqtisodiy, ta‘lim yoki boshqa maqsadlar bilan ixtiyoriy ravishda boshqa davlatga ko‘chishlarini anglatadi. Bu ko‘pincha iqtisodiy migrantlar, talabalar, va boshqa mehnat resurslari kabi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xususan, BMTning tasnifiga ko‘ra, xalqaro ixtiyoriy migratsiyaning 4 ta asosiy turi mavjud:

- a) *Mehnat migratsiyasi* – ish joylarini topish yoki yaxshi maosh olish maqsadida amalga oshiriladi. Bu turdagi migratsiya ko‘pincha rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan davlatlarga qarab sodir bo‘ladi.
- b) *Ta‘lim migratsiyasi* – o‘quvchilar yoki talabalar yaxshiroq ta‘lim olish maqsadida boshqa mamlakatga ko‘chadilar.
- c) *Oilaviy migratsiya* – oila a‘zolari birlashish maqsadida o‘z davlatidan tashqariga ko‘chadilar.
- d) *Xalqaro doimiy migratsiya*⁴;

Endi esa migratsiyaning sabablariga qisqacha to‘xtalamiz.

Migratsiyaning asosiy sabablari iqtisodiy, siyosiy, ekologik, va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Masalan, mehnat bozori va ish o‘rinlarining mavjudligi kabi iqtisodiy sabablar yoki urushlar, siyosiy repressiyalar, diniy va etnik ta‘qiblarni o‘z ichiga olgan siyosiy sabablar insonlarni bir yerdan boshqa joyga ko‘chishga undaydi. Bundan tashqari, tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishlari kabi ekologik muammolar, shuningdek etnik (milliy) sabablar, ya‘ni millatlarning birlashuvi yoki etnik kelib chiqishi jihatidan bir-biriga yaqin yoki bir xil bo‘lgan xalqlarning bir joyda to‘planishi ham migratsiyada muhim omillardan biri sifatida kuzatiladi. Bundan tashqari, yaxshi ta‘lim olish yoki sog‘liqni saqlash tizimidan foydalanish maqsadida yoki ayrim insonlarning shunchaki yangi joylarni o‘zlari uchun kashf etishi, bir xil hayotdan qochish va yangiliklarni sinab ko‘rish uchun ham bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishlari mumkin. Migratsiya faqatgina aqliy, siyosiy yoki iqtisodiy tamoyillarga asoslanibgina qolmasdan, hissiy shartlarga ham asoslanishi mumkin, ya‘ni bir oila birlashuvi yoki nikoh bilan bog‘liq motivlar ham migratsiyaga sabab bo‘lishi mumkin.⁵

Bundan tashqari, migratsiya ikki xil shaklda tashkil qilinishi mumkin:

³ <https://www.geeksforgeeks.org/what-is-migration-types-causes/#causes-of-migration>


⁴ L. Isoqov. Migratsiya huquqi. Darslik. T., 2022. 20-bet

⁵ O. Arzikulov; M. Mamirova. Maqola: Migratsiya sabablari va uni tashkil qilish usullari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7852632>

1) **Ijtimoiy-tashkiliy usul** - davlat va ijtimoiy tashkilotlarning iqtisodiy yordami va ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Bu yerda bosh vazifa chaqiriq asosida ishchilarni uyushgan holda to'plashdan iborat. Ijtimoiy-tashkiliy usul Sobiq Ittifoq davrida juda kenga qo'llanilgan edi. Masalan, 1950-1960 yillarda mehnat resurslarining ko'pchilik qismi (1.5 mlndan ko'proq kishi) shimoliy Qozog'iston va janubiy Sibirdagi cho'l zonalari va quruq yerlarni o'zlashtirish uchun uyushgan holda jo'natilgan edi. Qat'iy reja asosida ishchi kuchlari XX asrning ko'rinishlari bo'lgan BAMga, G'arbiy Sibirdagi neft-gaz kompleksiga, Timan-Pechora TPGga mobilizatsiya qilindi. Shu barobarida yuqori malakali kadrlar yetishmagan hududlarga, sanoat tarmoqlari rivojlanmagan joylarga, xususan, O'rta Osiyo va Qozog'iston Respublikalariga ishlash uchun mobilizatsiya qilindi. Bunday migratsion siyosat o'z ahamiyati bilan ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga ega edi.

2) **Uyushmagan (yakka tartib) usul** - migratsiya migratlarning o'z kuchi va mablag'i yordamida yakka tartibda amalga oshadi, ya'ni hukumatning hech qanday yordamisiz o'zlari tomonidan migratsiyani amalga oshirishga bo'lgan harakat tushuniladi.⁶

Shu o'rinda, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti tarkibida bo'lgan Global Migratsiya ma'lumotlar analizi markazining (Global Migration Data Analysis Centre) 2024-yil 26-sentabrgacha bo'lgan statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida 281 million odamlar xalqaro migrant sifatida e'tirof etildi. 2020-yilning o'rtasigacha ushbu miqdorning taxminan 48 foizi ayollar va qizlar bo'lsa, 13 foizi 18 yoshdan kichik bo'lgan bolalardir⁷.



⁶ O. Arzikulov; M. Mamirova. Maqola: Migratsiya sabablari va uni tashkil qilish usullari. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7852632>

⁷ <https://www.migrationdataportal.org/sites/g/files/tmzbdl251/files/2024-09/EN-26-Sep-Key-Figures-update.pdf>


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

MIGRATION AND HUMAN MOBILITY: KEY GLOBAL FIGURES

Updated with data available as of 26 September 2024

Next planned update: 30 October 2024



GLOBAL MIGRATION DATA ANALYSIS CENTRE

For key trends on each of the topics, click on the titles to be redirected to the respective thematic page on www.migrationdataportal.org



MIGRATION DATA PORTAL
The bigger picture

Yuqorida tahlil qilingan maqsad va motivlar asosida shakllangan xalqaro va ichki migratsiyaning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu nazariya turli olimlar va amaliyotchilar tomonidan o'rganilgan va hali hamon bu sohada izlanib kelinmoqda.

Xususan, V.M. Fomichevning fikricha: "Migratsiyaning asosida migrant taalluqli bo'lgan mamlakat va uni qabul qiluvchi mamlakat o'rtasidagi farq yotadi, migratsiya tarkibi esa ish kuchi malakasi hamda kelib chiqish joyiga bog'liq".

Shuningdek, aholi migratsiyasi qanday sabablarga ko'ra kelib chiqishidan qat'iy nazar, migrantlar tashlab chiqayotgan mamlakatlar uchun ham, ularni qabul qilishi kutilayotgan mamlakatlar uchun ham qator oqibatlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotchilar tomonidan uning ijobiy va salbiy oqibatlari, shuningdek, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan muammolari ham ancha chuqur tadqiq qilingandir.

L.P. Maksakovaning yozishicha: "Hozirgi zamonda vaqtinchalik mehnat migratsiyasi jahon iqtisodiyoti globallasuvi va u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar bilan belgilanuvchi obyektiv reallik

bo'lib, jahon iqtisodi subyekti sifatidagi turli davlatlar iqtisodiy o'zaro bog'liqligi yanada kuchayishiga olib kelmoqda⁸.

Haqiqatdan ham, migratsiya sohasi barcha davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Insonlarning turli maqsadlarda yoki sabablarda bir joydan boshqa joyga ko'chishi va o'troqlashishi o'sha jamiyatda, albatta, ko'plab salbiy yoki ijobiy oqibatlarini keltirib chiqargan.

Ijobiy oqibatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

✓ *Insonlarning dunyoqarashi va ilmi kengayishi.* Har bir inson boshqa bir rivojlangan shaharga yoki mamlakatga uzoq yoki qisqa muddat sayohat qilishi natijasida dunyodagi turfa xillikni ko'ra olishi, diniy va dunyoviy jihatdan fikrlash nuqtayi nazari oshishi inkor qilib bo'lmas haqiqatdir.

✓ *Madaniyat va diniy bag'rikenglikning oshishi.* Bilamizki, bir xil muhitda tarbiya topgan inson o'zgarishlarga yuqori darajada tayyor bo'la olmasligi mumkin. Dunyoning boshqa xalqlaridan va joylaridan bexabar qolish u insonni tor doirada qolib ketishga majburlaydi. Migratsiya natijasida turli millat va elatlarning birlashuvi esa o'sha yerda yashovchi shaxslarga diniy bag'rikenglik va madaniyatlar almashinuvini yuzaga keltiradi.

✓ *Mehnat bozorini to'ldirish.* Rivojlangan va aholisi kam davlatlarda mehnat kuchining yetishmasligi sababli migrantlar ishchi kuchi sifatida muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, BAA mamlakatining tub aholisi taqriban 2 million 600 ming kishini, ya'ni u yerda yashovchi shaxslarning atigi 20 foizini tashkil qiladi. Qolgan 80 foizi esa ishlash yoki o'qish maqsadida kelgan migrantlardir. Chunki hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirliklari turistik sohada juda katta islohotlar amalga oshirganligi va bo'sh ish o'rni ko'payganligi sababli boshqa mamlakatlardan, xususan, Hindiston, Flippin, Indoneziya, Sudan, Tunis kabi davlatlardan migrantlar oqimi ko'paymoqda.

✓ *Iqtisodiy o'sish.* Migrantlar yangi ish o'rinlari yaratishlari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va davlat budjetiga soliq to'lash orqali mamlakatni iqtisodiy taraflama qo'llab-quvvatlashi mumkin.

✓ *Texnologik va ilmiy taraqqiyot.* Ta'lim olish maqsadida kelgan talabalar va ilmiy tadqiqotchilar yangi ilmlarni egallashi natijasida har bir sohada o'sish va rivojlanish kuzatiladi.

✓ *Demografik muvozanatni yaxshilash.* Ayrim rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish ko'rsatkichlarining kamligi va natijada, yosh ishchilarning kamayishi ushbu davlatning har bir sohasida rivojlanishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Migrantlar esa, o'z o'rnida, ushbu muammoga yechim bo'lishlari mumkin.

Tanganing ikki tarafi bo'lganidek, mazkur holat salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin:

✓ *Ijtimoiy ta'sirlar va ziddiyatlar.* Migrantlar va mahalliy aholi doim ham bag'rikenglik asosida o'zaro aloqa o'rnata olmaydi. Natijada esa ular o'rtasida turli ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Turli madaniyatlar, til, din yoki irqiga ko'ra diskriminatsiya darajasining oshishi holatlari ham mavjud.

✓ *Mehnat bozorida raqobatning oshishi.* Ayrim hollarda migratsiya mehnat bozorida raqobatni oshirishi natijasida mahalliy ishchilarga imkoniyatning susayishi, ayniqsa, kam maoshli va malakasi pastroq bo'lgan ishchilarning bozordan siqib chiqarilishi mamlakatlarda noroziliklarga sabab bo'lishi mumkin.

✓ *Noqonuniy ishlash va mehnat huquqlarining buzilishi.* Noqonuniy ravishda kirib kelgan migrantlar yomon mehnat sharoitlarida ishlashga majbur bo'lishlari, bu esa inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

⁸ Maksakova L.P. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., TDYI, 2001. 97-bet

Rasmiy va oshkora migratsiya oqimi bilan bir qatorda, norasmiy, yashirin mehnat migratsiyasining ham avj olib borayotganligi, ayrim mintaqalar va davlatlar darajasida ham qator noxush iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy oqibatlar yuzaga kelayotganligi tashvishli hodisa sifatida baholanmog‘i lozim.⁹

✓ *Davlatlar byudjetiga zarar yetishi.* Migrant shaxslar o‘zlarining xarajatlarini qoplay olmasalar, qabul qiluvchi ba’zi rivojlangan davlatlar ularga ijtimoiy yordamlar va moliyaviy paketlar bilan ta’minlashi mumkin. Bu esa mamlakat g‘aznasiga ortiqcha yuk bo‘lishi ehtimoli yuqori.

✓ *Siyosiy qiyinchiliklar.* Ba’zi mamlakatlarda migrantlarni yoqtirmaslik va ularga qarshi qonun yoki harakatlarning vujudga kelishi millatchilik yoki ekstremistik fikrlarini kuchaytirishi mumkin va natijada, aholi tinchligi va siyosatga putur yetishi mumkin.

✓ *Tabiiy resurslarning ko‘p ishlatilishi.* Qabul qiluvchi mamlakatda tabiiy resurslar, shu jumladan, suv, energiya va boshqa resurslardan foydalanishlari sababli ushbu davlatga zarar yetkazishi mumkin.

Bundan tashqari, Migratsiyani ijtimoiy hodisa sifatida uchta ko‘rinishi mavjud: shaxsning yashash makonini o‘zgartirishi (harakatchanlik omili); shaxsning o‘z ijtimoiy maqomi va statusini yaxshilash niyati (ehtiyoj omili); shaxsning yaxshi yashash istagidan kelib chiqib yangi joyda “ikkinchi vatan” (barqarorlik omili) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Migratsiyaning tarixiy turlari sifatida bosqinchilik, urbanizatsiya, mustamlakachilik, chiqish, qochish yoki surgun aholining asosiy harakat maqsadini ko‘rsatib bergan. Bugungi kundagi migratsiyaning rivojlanish tendentsiyasiga ikki tomondan qarash mumkin: bir tomondan, qochirish ya’ni, iqtisodiy qiyinchilik, turmush sifati va darajasi pastligi tufayli “surish” omillari, boshqa tomondan esa, chaqirish, ya’ni, mamlakatlarning “jalb qilish” omillari hayot sifatining yuqoriligi tufayli ishchi kuchiga ehtiyoj va boshqalar.

Bugungi kundagi migratsiyaning rivojlanish tendentsiyasiga ikki tomondan qarash mumkin: bir tomondan, qochirish ya’ni, iqtisodiy qiyinchilik, turmush sifati va darajasi pastligi tufayli “surish” omillari, boshqa tomondan esa, chaqirish, ya’ni, mamlakatlarning “jalb qilish” omillari hayot sifatining yuqoriligi tufayli ishchi kuchiga ehtiyoj va boshqalar. Shu o‘rinda birinchi qochirish omili haqida to‘xtalib shuni aytish mumkinki, davlatlarning mehnat migratsiyasiga doir yuritayotgan hozirgi siyosati, birinchi galda, mamlakat ichida ishsizlikka qarshi kurashishga qaratilgan. Negaki, iqtisodiy jihatdan qiyinchilikka uchrayotgan davlatlar fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy ta’minotini boshqa davlatlar hisobiga to‘ldirishga harakat qiladi.

Ikkinchi tomondan esa, chaqirish, ya’ni, mamlakatlarning “jalb qilish” omillari hayot sifatining yuqoriligi tufayli ishchi kuchiga ehtiyoj va boshqalar. Masalan, AQSHga kirib keluvchi immigrantlarning ham tarkibidagi qaralsa, rivojlanish darajasi past bo‘lgan davlatlar bilan birga, rivojlanayotgan davlatlar aholisini ham ko‘rish mumkin. Bundan xulosa shuki, aholi faqat qorin to‘qlash uchun boshqa davlatga ko‘chishni ixtiyor etibgina qolmasdan, hozirgi yashash sharoitini ham yaxshilash zarurati tufayli ko‘chayotganligini kuzatish mumkin.¹⁰

Jumladan, xalqaro migratsiyaning O‘zbekiston Respublikasi uchun qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini tahlil qilamiz. Yurtimizdagi ilmiy insonlarning boshqa mamlakatlarga ko‘chishi ichki kuchning raqobatbardosh qismi, ayniqsa, olimlar va mutaxassislarni yo‘qotishga olib keladi, bu ilmiy-texnik taraqqiyot sur‘atlarining pasayishiga va milliy ishchilarga bosimning kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, boshqa davlatga migratsiya qilgan ba’zi fuqarolarimiz

⁹ Y. Tursunov. Tashqi mehnat migratsiyasi va uning huquqiy asoslarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. T., TDYI, 2012. 30-bet

¹⁰ <file:///C:/Users/User/Downloads/Konferensiya+PDF-32-34+Mansurov+Abdulaziz+Akbarjonovich.pdf>


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

mahalliy ish beruvchilar tomonidan kamsitilishi va ekspluatatsiya qilinishi, noqonuniy mehnat migratsiyasining ko'payishi munosabati bilan qabul qiluvchi mamlakatlardan O'zbekistonga qarshi siyosiy va iqtisodiy da'volarning paydo bo'lishi hamda jamiyatda etnik nizolar orqali jinoyatchilik va ijtimoiy keskinlikning o'sishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq jarayonlar O'zbekistonning davlat migratsiyasi siyosati bilan tartibga solinadi. Bugungi kunda hukumatning muhim vazifasi nafaqat O'zbekiston fuqarolarini chet elda qonuniy ravishda ish bilan ta'minlash uchun huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar orqali shart-sharoitlar yaratish, balki O'zbekiston fuqarolari – mehnat migrantlarini o'z vataniga qaytarish tizimini joriy etishdan iboratdir. Hozirgi kunda Tashqi mehnat migratsiya agentligi va uning rasmiy sayti ishga tushirilgan. Ushbu portal fuqarolarning xorijda ish topishiga yordamlashishi, mehnat muhojirlarini boradigan mamlakatlarda qo'llab-quvvatlash, jo'nab ketishdan oldin tayyorgarlik ko'rish va vatanga qaytganlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etmoqda.

Quyidagi rasmda esa <https://migration.uz/services> saytidan foydalanganlik statistikasini ko'rishingiz mumkin:



TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI AGENTLIGI		Agentlik	Xizmatlar	Matbuot xizmati	Hujjatlar	Ochiq ma'lumotlar	Murojaat qilish	Qidirish uchun	O'zbekcha
Yozma murojaatlar	Jismoniy shaxslardan	5599							
	Yuridik shaxslardan	238							
	Virtual qabulore orqali	671							
Og'zaki murojaatlar	Murojaatlar soni	63841							
	Call-markaz orqali	156205							
Yuzma-yuz murojaatlar	Sayyor qabulda	5877							

Shu o'rinda, O'zbekistonlik migrantlarning Rossiya Federatsiyasidagi huquqlari qanchalik himoyada yoki buning teskarisi ekanligini ushbu real keysda ko'rishimiz mumkin.¹¹

2018-yil 26-oktabrda o'zbekistonlik migrant Alisher va uning 12 nafar ijaradoshlari Moskva politsiyasi tomonidan tekshiruvdan o'tkazildi va ulardan aynan shu yerda yashashlari to'g'risidagi ma'lumotnomalarini taqdim etishini so'radi. Ammo ushbu migrantlar mazkur xonadonda ro'yxatda turishmasdi. Shu sababli, politsiya xodimlari migrantlarning mamlakat qonunlarini buzganliklari sababli ular ustida sudga murojaat qilishlari hamda deport qilish chorasi ko'rilishi haqida ogohlantirishdi. Ushbu migrantlarda haqiqatdan ham yashash patentlari bor edi, ammo ular boshqa yashash joyidan ro'yxatdan o'tishgandi.

Politsiya ularni hibsxonagan joylashtirishdan avval bir nechta hujjatlarga imzo qo'yishga majburladi. Bundan tashqari, ularga bir necha kun ovqat ham berilmadi.

¹¹ R. Urinboev. Sh. Eraliev. The political economy of Non-Western migration regimes. Central Asian migrant workers in Russia and Turkiye. Published by Palgrave macmillan, - 2022. 93-p.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Dushanba kuni ertalab, 13 nafar hibsga olingan migrantni 5 kishiga mo'ljallangan mashinaga solib, sudga olib borishdi. Biroq, sudya politsiyaga ushbu hujjatlar deport qilishga yetarli emasligini tushuntirgan holda sud protsessesini kechiktirdi. Alisher va uning xonadoshlari keyinchalik yana turli blanka va hujjatlarni hech qanday tushuntirishlarsiz imzolashga majburlandi.

Keyingi sud jarayonida, sudya migrantlarga tarjimon kerak ekanligi yoki shart emasligi haqida so'radi, ammo Alisher rus tilida nutqi ravon bo'lganligi uchun tarjimon olishni rad etdi hamda sudyaga barcha shaxslar Rossiyada ishlayotganliklarini va ularda haqiqiy yashashga ruxsat beruvchi hujjatlar borligini ta'kidladi. Biroq, sud ularning qonuniy ro'yxatdan o'tgan joylarida emas, boshqa joyda yashayotganliklarini sabab qilib ko'rsatgan holda huquqbuzarlarni Rossiyadan 10 kun ichida deport qilish va 5000 rubl (80\$) jarima to'lashi kerakligi haqida hukm chiqardi. Shuningdek, 10 kun ichida yuqori sudga appelyatsiya berishlari mumkin ekanligi haqida ogohlantirildi.

Biroq, barcha migrantlar sud qaroriga qaramasdan Rossiyadan chiqib ketishni xohlashmadi. Alisher esa appelyatsiya berishga qaror qildi va o'sha yerdan huquqshunos topdi (odatda migrantlar bu yo'lni har doim ham tanlayvermaydi).

Ushbu huquqshunos Alisherga o'z hikoyasini o'zgartirishni, bu xonadonga o'sha kuni faqatgina mehmon sifatida tashrif buyurganligini aytishini ta'kidladi hamda tarjimon olish huquqidan foydalanishini va tarjimonsiz biror so'z ham aytmasligini maslahat berdi.

Alisher advokatining so'zlariga amal qilgandan so'ng, yangi dalillar va qaytadan tuzilgan hikoya natija berdi. Sud ushbu xatti-harakatda huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lmaganligi sababli birinchi instansiya qarorini bekor qildi va natijada, Alisher qonuniy migrant statusiga qaytdi. Biroq, bir xil voqealarni boshidan kechirgan qolgan 12 nafar migrant noqonuniy migrantga aylandi.

Ushbu real kazu orqali bir nechta xulosalar qilishimiz mumkin:

Birinchidan, qabul qiluvchi mamlakatda migratsiyaga oid qonunlar to'g'ri va to'liq ishlamasligi hamda migrantlarning huquqlari himoya qilinmasligi. Buni politsiya tomonidan ayblanuvchilarga juda qo'pol munosabatda bo'lingani va turli hujjatlarni imzolashga majbur etilganligidan sezishimiz mumkin. Bundan tashqari, korrupsiyaviy holatlarning ham mavjudligini anglash mumkin.

Ikkinchidan, sudlar tomonidan masalalar atroflicha o'rganilmasligini ham aytishimiz mumkin. Chunki birinchi instansiya sudida dalillar yetarli emasligi fakti keltirib o'tildi, ammo keyinchalik haqiqiy emas deb topilishi mumkin dalillarni sud ishga qabul qildi. Dalillarning maqbul yoki nomaqbulligini tekshirib o'tmadi.

Shuningdek, qabul qiluvchi mamlakatda nafaqat migrant huquqlari, balki inson huquqlarining ham qo'pol ravishda buzilganligini ko'rishimiz mumkin. Huquqbuzarlik sodir etganlikda gumonlanayotgan shaxslarni sharoiti yomon joyda hech qanday yeguliksiz saqlash qanchalar inson huquqlariga to'g'ri kelar ekan?!

Bu kabi holatlarni, afsuski, ko'plab kuzatishimiz mumkin. Shu sababli, har bir davlatda inson huquqlarining bir qismi sifatida migratsiya huquqlari ham ta'minlanishi lozim deb o'ylayman. Kirib keluvchi migrantlar uchun keraksiz hujjatbozliklarning kamayishi yoki ortiqcha to'lov va soliqlardan ozod etilishi yuqoridagi keysdagi kabi holatlarning oldini olishi mumkin.

Umuman olganda, xalqaro va ichki migratsiya butun dunyo uchun ko'plab afzalliklarni olib kelishi mumkin. Insonning asl tabiatiga tegishli bo'lgan bu migratsiya to'xtatib bo'lmaz jarayon. Shu sababli, migratsiya huquqini yanada takomillashtirish, davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, bo'sh ish o'rni ko'p mamlakatlarda chet ellik yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham mahalliy aholi kabi turli yaxshi sharoitlarni yaratish, inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga

oshirish lozim. Shundagina, migratsiya xalqlar orasida kelishmovchiliklarni kamaytirib, insoniyatga turli foyda va yaxshiliklar olib kelishi aniq.

Foydalanilgan manbalar:

1. Jean de Vignay. Le Miroir historical (Speculum historiale), volume I, tome I (livres I-IV), ed. Mattia Cavagna. – Paris: Societe des anciens textes francais, Abbeville, F. Paillart, 2017;
2. L. Isoqov. Migratsiya huquqi. Darslik. T., 2022;
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild (E-M). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006;
4. Maksakova L.P. Миграция населения: проблемы регулирования. Т., TDYI, 2001;
5. Y. Tursunov. Tashqi mehnat migratsiyasi va uning huquqiy asoslarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. T., TDYI, 2012;
6. R. Urinboev. Sh. Eraliev. The political economy of Non-Western migration regimes. Central Asian migrant workers in Russia and Turkiye. Published by Palgrave macmillan, - 2022;
7. O. Arzikulov; M. Mamirova. Maqola: Migratsiya sabablari va uni tashkil qilish usullari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7852632>;
8. <https://www.migrationdataportal.org/sites/g/files/tmzbd1251/files/2024-09/EN-26-Sep-Key-Figures-update.pdf>;
9. <https://www.geeksforgeeks.org/what-is-migration-types-causes/#causes-of-migration>